- 14) Quality Assurance Agency for Higher Education. (2024). Artificial intelligence in assessment: QAA sector guidance. QAA. <https://www.qaa.ac.uk/membership/membership-areas-of-work/academic-integrity>
- 15) Renn, O. (2008). Risk governance: Coping with uncertainty in a complex world. Earthscan. <https://doi.org/10.4324/9781849772440>
- 16) UNESCO. (2023). Guidance for generative AI in education and research. UNESCO Publishing. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693>
- 17) Venkatesh, V., Morris, M. G., Davis, G. B., & Davis, F. D. (2003). User acceptance of information technology: Toward a unified view. MIS Quarterly, 27(3), 425–478. <https://doi.org/10.2307/30036540>
- 18) World Bank. (2024). Digital technologies in tertiary education: Policy and practice in emerging economies. World Bank Publications. <https://openknowledge.worldbank.org>

A ILOVA. TADQIQ QILINGAN MUASSASALAR RO'YXATI

Ushbu ilovada tadqiqot doirasida SI sohasidagi siyosatlarini tahlil qilingan 127 ta oliy ta'lim muassasasining ro'yxati keltirilgan. Normativ hujjatlar 2024-yil sentyabr — 2025-yil yanvar davrida yig'ilgan.

A.1 Amerika Qo'shma Shtatlari (n=31)

R1 tadqiqot universitetlari: Stenford universiteti, Massachusetts texnologiya instituti, Garvard universiteti, Yel universiteti, Prinston universiteti, Kolumbiya universiteti, Berkli Kaliforniya universiteti, Michigan universiteti, Karnegi-Mellon universiteti, Pensilvaniya universiteti, Dyuk universiteti, Shimoli-G'arbiy universitet, Chikago universiteti, Ostindagi Texas universiteti, Los-Anjeles Kaliforniya universiteti, Vashington universiteti, Medisondagi Viskonsin universiteti, Kornell universiteti, Jons Hopkins universiteti, Urbana-Shampeyndagi Illinoys universiteti.

R2 va kompleks universitetlar: Jorj Meyson universiteti, Denver universiteti, San-Diyego shtat universiteti, Markaziy Florida universiteti, Portlend shtat universiteti, Boyse shtat universiteti, Klivlend shtat universiteti.

Jamoat kollejlari: Miami Dade College, Northern Virginia Community College, Austin Community College, Santa Monica College.

A.2 Yevropa Ittifoqi (n=28)

Shveysariya federal texnologiya instituti (Shveysariya), Lyoven katolik universiteti (Belgiya), Amsterdam universiteti (Niderlandiya), Myunxen texnika universiteti (Germaniya), RWTH Aachen (Germaniya), Myunxen Lyudvig-Maksimilian universiteti (Germaniya), Berlin Gumboldt universiteti (Germaniya), Sorbonna (Fransiya), Sciences Po (Fransiya), Lozanna federal politexnika maktabi (Shveysariya), Bolonya universiteti (Italiya), Milan politexnika instituti (Italiya), Barselona universiteti (Ispaniya), Madrid muxtor universiteti (Ispaniya), Delft texnika universiteti (Niderlandiya), Leyden universiteti (Niderlandiya), Kopengagen universiteti (Daniya), Uppsala universiteti (Shvetsiya), Xelsinki universiteti (Finlyandiya), Vena universiteti (Avstriya), Dublin Trinit kolleji (Irlandiya), Dublin universitet kolleji (Irlandiya), Varshava universiteti (Polsha), Karl universiteti (Chexiya), Lissabon universiteti (Portugaliya), Gent universiteti (Belgiya), Lyoven katolik universiteti (Belgiya), Groningen universiteti (Niderlandiya).

A.3 Buyuk Britaniya (n=22)

Rassel guruhi: Oksford universiteti, Kembrij universiteti, London Imperial kolleji, London universitet kolleji, London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi, London Qirol kolleji, Edinburg universiteti, Manchester universiteti, Bristol universiteti, Uorik universiteti, Glazgo universiteti, Birmingem universiteti, Lids universiteti, Sheffild universiteti, Nottingem universiteti, Sautgempton universiteti, Liverpul universiteti, Nyukasl universiteti, London Qirol Meri universiteti.

Post-92 universitetlar: Oksford Bruks, Manchester metropoliten universiteti, Lids Bekket.

A.4 Osiyo (n=29)

Sharqiy Osiyo: Singapur Milliy universiteti, Nanyan texnologiya universiteti, Singapur menejment universiteti, Gonkong universiteti, Gonkong Xitoy universiteti, Gonkong fan va texnologiya universiteti, Pekin universiteti, Sinxua universiteti, Fudan universiteti, Shanxay Szyao Tun universiteti, Tokio universiteti, Kioto universiteti, Vaseda universiteti, Seul Milliy universiteti, KAIST, Koreya universiteti, Tayvan Milliy universiteti.

Janubiy-Sharqiy Osiyo: Chulalongkorn universiteti (Tailand), Malayya universiteti (Malayziya), Malayziya Milliy universiteti, Filippin universiteti.

Fors ko'rfazi va Janubiy Osiyo: Qirol Abdullo fan va texnologiya universiteti (Saudiya Arabistoni), Qirol Saud universiteti (Saudiya Arabistoni), NYU Abu Dhabi (BAA), Xalifa universiteti (BAA), Sharja Amerika universiteti (BAA), Qatar universiteti, Bombey Hind texnologiya instituti (Hindiston), Bangalor Hind fan instituti (Hindiston).

A.5 Sobiq sovet davlatlari (n=17)

Bolliqbo'yi davlatlari: Tartu universiteti (Estoniya), Tallin texnika universiteti (Estoniya), Vilnyus universiteti (Litva), Riga texnika universiteti (Latviya), Latviya universiteti.

Markaziy Osiyo: Nozarboyev universiteti (Qozog'iston), Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston), KIMEP universiteti (Qozog'iston), Toshkentdagi Vestminster xalqaro universiteti (O'zbekiston), O'zbekiston Milliy universiteti.

Rossiya: “Oliy iqtisodiyot maktabi” milliy tadqiqot universiteti, ITMO universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti.

Ukraina va Kavkaz: “Kiyev-Mohila akademiyasi” Milliy universiteti (Ukraina), Tbilisi davlat universiteti (Gruziya), ADA universiteti (Ozarbayjon).

Eslatma: Ushbu ro'yxat SI sohasidagi ommaviy siyosat hujjatlari tahlil qilingan muassasalarni o'z ichiga oladi. Ro'yxatga kiritilish ma'qullashni anglatmaydi. Tahlil tadqiqot davrida (2024-yil sentyabr — 2025-yil yanvar) mavjud bo'lgan hujjatlarni aks ettiradi.

ILMIY MAQOLA

Tijorat banklarida risk madaniyatini baholash va boshqarish: Risk Madaniyati Indeksi (RCI) modeli asosida empirik tahlil

Rabbimov Jaxongir

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

* Bogg'lanish uchun: rabbimov@outlook.com

Qabul qilindi: 17.01.2026 y. | Qayta ko'rib chiqildi: 03.03.2026 y. | Chop etildi: 2026-yil 7-mart

ANNOTATSYA

Mazkur maqolada tijorat banklarida risk madaniyatini baholash va boshqarish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi bank xodimlarida riskka bo'lgan munosabatni tizimli ravishda o'lchash imkonini beruvchi amaliy modelni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadda Risk Madaniyati Indeksi (Risk Culture Index - RCI) modeli taklif etildi. Model Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi, Moliyaviy barqarorlik kengashi hamda Risklarni boshqarish instituti tomonidan ilgari surilgan yondashuvlarga asoslanadi. Maqola natijalari tijorat banklarida risk madaniyatini baholash va boshqarish tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bank risklarini samarali boshqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: *Risk madaniyati, Risk Culture Index, tijorat banklari, operatsion risk, risklarni boshqarish.*

1. KIRISH

Bugungi kunda tijorat banklarida risklarni samarali boshqarish nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, balki bank faoliyatining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun ham muhim omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda global moliyaviy inqirozlar, texnologik xatarlarning ortishi hamda ichki nazorat tizimlaridagi kamchiliklar bank risklarini boshqarishda faqatgina siyosat va protseduralarga tayanish yetarli emasligini ko'rsatdi. Shu sababli xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan banklarda risk madaniyatini shakllantirish va baholash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Risk madaniyati bank xodimlari va rahbariyatining riskka bo'lgan munosabati, xulq-atvori hamda qaror qabul qilish jarayonlarida risk omillarini inobatga olish darajasini ifodalaydi. Kuchli risk madaniyatiga ega banklarda risklarni aniqlash, baholash va kamaytirish jarayonlari samaraliroq amalga oshiriladi, xodimlarning mas'uliyati oshadi hamda ichki nazorat mexanizmlari mustahkamlanadi. Aksincha, risk madaniyatining sustligi bank faoliyatida operatsion xatolar, ichki qoidabuzarliklar va moliyaviy yo'qotishlar ehtimolini oshiradi.

Xalqaro amaliyotda risk madaniyatini baholash bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular asosan sifat ko'rsatkichlariga tayanadi. Biroq ushbu yondashuvlar ko'pincha aniq o'lchash mexanizmlarining yetishmasligi sababli bank amaliyotida cheklangan darajada qo'llaniladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar bank tizimida risk madaniyatini tizimli baholashga moslashtirilgan amaliy modellarning yetishmasligi dolzarb muammo hisoblanadi.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ichki nazorat va komplayens mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, banklarda risk madaniyatini baholash va uni rivojlantirishga qaratilgan yagona, tizimli yondashuvlar yetarli darajada shakllanmagan. Amaliyotda risk madaniyati ko'proq ichki audit xulosalari yoki sifatli baholashlar orqali aniqlanib, ularni miqdoriy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan.

Mazkur maqolaning maqsadi tijorat banklarida risk madaniyatini miqdoriy baholash imkonini beruvchi Risk Madaniyati Indeksi (Risk Culture Index - RCI) modelini taklif etish hamda uning bank amaliyotida qo'llanish imkoniyatlarini empirik tadqiqot asosida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari bank boshqarmalari kesimida risk madaniyatining mavjud holatini aniqlash, muammoli sohalarni belgilash va risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

“Risk madaniyati - tashkilotning xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonlarida riskni qanday qabul qilishi va boshqarishi” - bu FSB (Financial Stability Board) tomonidan ham asosiy tamoyil sifatida ko'rsatilgan: FSB risk madaniyati rahbarlik, hisobdorlik, aloqa va rag'batlantirish elementlariga bog'liqligini ta'kidlaydi.

“Board (yoki leadership) - risk madaniyatining ‘tone at the top’ manbai” - Basel/BCBS ham korporativ boshqaruv prinsiplari orqali rahbariyatning yetakchiligi va o'rnak ko'rsatishi muhimligini qayd etadi; bu risk madaniyatini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash uchun zarur.

Bir qancha empiric tadqiqotlar risk madaniyati indikatorlari va stress-test / zarar ko'rsatkichlari o'rtasida munosabat topganini bildiradi; bu RCI kabi indeksning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

O'Ichash usullari haqida: so'rovnoma yetarli emas - ko'p manbali yondashuv kerak - Bank of England va boshqa tadqiqotchilar an'anaviy so'rovnoma qiynalayotganini, shuning uchun ichki shikoyatlar, ichki xurujlar (fraud), mijoz shikoyatlari va boshqa “obyektiv” indikatorlarni qo'shish tavsiya etilishini ko'rsatadi. (masalan, Suss va Bank of England ishlari).

Nazorat organlari va amaliy tavsiyalar (FSB / G30 / milliy nazoratlar) - FSB va boshqa xalqaro organlar (G30, milliy prudensial nazoratlar) risk madaniyati bo'yicha nazorat vaqida qanday interaktsiyaga kirishish kerakligi haqida metodik tavsiyalar berdi; shu tufayli banklar RCI kabi o'lchovlarni nazorat talablariga mos ravishda ishlab chiqishi mumkin.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida risk madaniyatini baholash uchun miqdoriy va sifat yondashuvlarini uyg'unlashtirgan empirik metodologiya qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bank xodimlarining riskka bo'lgan munosabati, xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonlarida risk omillarini inobatga olish darajasini miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholashdan iborat. Ushbu maqsadda Risk Madaniyati Indeksi (Risk Culture Index - RCI) modeli ishlab chiqildi va bank amaliyotida sinovdan o'tkazildi.

Tadqiqot kesimli dizayn asosida amalga oshirildi. Empirik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi tijorat bankida o'tkazilgan anonim so'rovnoma orqali to'plandi. So'rovnoma bankning yetti nafar asosiy boshqarmasi xodimlari ishtirok etdi. Har bir boshqarma bo'yicha kamida 10 nafar va ko'pi bilan 50 nafargacha xodim qamrab olinib, bu natijalarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

Respondentlarning shaxsi to'liq anonim saqlanib, ma'lumotlar faqat umumiy statistik tahlil uchun foydalanildi. Ushbu yondashuv respondentlarning erkin fikr bildirishini rag'batlantirish hamda ijtimoiy istaklilik (social desirability bias) ta'sirini kamaytirishga qaratilgan.

1.1 Tadqiqot instrumenti va o'lchov vositalari

Risk madaniyatini baholash maqsadida 25 ta savoldan iborat so'rovnoma ishlab chiqildi. So'rovnoma to'rtta asosiy komponentni qamrab oldi: rahbariyat va xabardorlik, mas'uliyat va egalik, aloqa va munosabat hamda rag'batlantirish va xulq-atvor. Har bir komponent bank risk madaniyatining muhim jihatlarini ifodalovchi indikatorlar asosida shakllantirildi.

So'rovnoma savollari xalqaro moliyaviy institutlar, xususan, Financial Stability Board va Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ilgari surilgan risk madaniyati tamoyillariga mos ravishda ishlab chiqildi. Respondentlar savollarga 5 ballik Likert shkalasi asosida baho berdilar, bunda 1 ball “mutlaqo rozi emasman”, 5 ball esa “to'liq roziman” holatlarini ifodalaydi.

Risk Madaniyati Indeksini hisoblash usuli. RCI har bir respondent bo'yicha to'rtta komponent ballarining arifmetik o'rtachasi sifatida hisoblandi. Komponentlar teng vaznli deb qabul qilinib, bu yondashuv risk madaniyatining barcha jihatlarini muvozanatli baholash imkonini berdi. Boshqarma darajasidagi RCI ko'rsatkichi esa ushbu boshqarma xodimlari bo'yicha individual indeksning o'rtacha qiymati asosida aniqlandi.

Olingan natijalar talqinini soddalashtirish maqsadida RCI qiymatlari uchta toifaga ajratildi: past (0,0-2,5), o'rta (2,6-3,5) va yuqori (3,6-5,0) risk madaniyati darajalari. Ushbu tasnif bank boshqarmalari kesimida risk madaniyatining holatini solishtirish va muammoli yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi.

Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil usullari. So'rovnoma natijalari elektron jadval dasturlari yordamida qayta ishlanib, deskriptiv statistik tahlil usullari qo'llanildi. Har bir komponent bo'yicha o'rtacha qiymatlar, minimal va

maksimal ko'rsatkichlar aniqlanib, natijalar jadval va diagrammalar ko'rinishida taqdim etildi. Boshqarmalar kesimida olingan natijalar o'zaro taqqoslanib, risk madaniyatining nisbiy kuchli va zaif jihatlari aniqlandi.

Tadqiqot cheklovlari. Mazkur tadqiqot ayrim cheklovlarga ega. Xususan, tadqiqot bitta tijorat banki misolida o'tkazilgan bo'lib, natijalarni to'liq bank tizimiga umumlashtirish ehtiyotkorlikni talab etadi. Shuningdek, ma'lumotlar respondentlarning subyektiv baholariga asoslangan bo'lib, kelgusida tadqiqotni obyektiv ko'rsatkichlar bilan boyitish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1.2 Tahlil va natijalar

Tijorat banklarida risk madaniyatini muntazam o'lchash va xodimlarning riskka bo'lgan munosabatini tahlil qilish maqsadida Risk Madaniyati Indeksi (Risk Culture Index - RCI) modeli taklif etildi.

Ushbu model Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi, Moliyaviy barqarorlik kengashi va Risklarni boshqarish instituti tavsiyalariga asoslanadi.

RCI to'rtta asosiy komponentdan iborat: Rahbariyat va xabardorlik, Mas'uliyat va egalik, Aloqa va Munosabat hamda Rag'batlantirish va xulq-atvor.

Model bo'yicha 25 ta indikator (1-5 ball shkalasida) baholanadi. Har bir boshqarma xodimlari o'rtasida anonim so'rovnoma o'tkaziladi, natijalar Excel asosida dinamik tarzda qayta ishlandi.

Model asosida jami 25 ta savollardan iborat so'rovnoma xodimlar o'rtasida anonim tarzda yilda bir marta o'tkaziladi.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasida faoliyat yurituvchi o'rta hajmdagi tijorat bankida o'tkazildi, natijalar umumiy statistik tahlil uchun ishlatildi.

Ma'lumotlar har bir boshqarma kesimida tahlil qilinadi.

Quyidagi savollarga 1 dan 5 gacha bo'lgan baho bilan javob beriladi, bu yerda:

Risk madaniyatini baholash so'rovnomasida respondentlarning munosabatini aniqlash maqsadida 5 ballik Likert shkalasidan foydalanildi. Mazkur shkalaga ko'ra, 1 ball - "mutlaqo rozi emasman", 2 ball - "qisman rozi emasman", 3 ball - "betarafman", 4 ball - "qisman roziman", 5 ball - "to'liq roziman" holatlarini ifodalaydi.

So'rovnoma to'ldirilib topshirilgandan so'ng, natijalar umumlashtirilib, har bir boshqarma bo'yicha Risk Culture Index (RCI) ko'rsatkichi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$RCI_{\text{hodim}} = \text{Xabardorlik} + \text{Mas'uliyat} + \text{Munosabat} + \text{Rag'batlantirish} \quad (1)$$

Bu yerda indeks komponentlari teng vaznli deb qabul qilinib, Risk Madaniyati Indeksi ularning arifmetik o'rtachasi sifatida hisoblandi.

Har bir boshqarmada kamida 10 nafar va ko'pi bilan 50 nafargacha xodim so'rovnomada ishtirok etdi. Boshqarma bo'yicha o'rtacha qiymat olinadi:

$$RCI_{\text{boshqarma}} = RCI_{\text{hodim}} / N \quad (2)$$

Masalan, Kredit boshqarmasida 30 kishi javob berdi:

Ularning o'rtacha Risk madaniyat indeksi 3.85, ya'ni bu "yuqori risk madaniyati" darajasini bildiradi.

1-jadval. Baholash diapazonlari

RCI qiymati	Tavsif	Rang
0.0 - 2.5	Past daraja - risk madaniyati zaif	Qizil
2.6 - 3.5	O'rta daraja - rivojlanayotgan madaniyat	Sariq
3.6 - 5.0	Yuqori daraja - barqaror risk madaniyati	Yashil

RCI natijalaridan so'ng bank quyidagi tavsiyalar bo'yicha choralar ko'radi:

2-jadval. Risk Madaniyati Indeksi darajalariga qarab tavsiya etiladigan chora-tadbirlar

RCI darajasi	Tavsiya etiladigan chora
Past (≤ 2.5)	Riskdan xabardorlik treninglari, rahbarlar malakasini oshirish
O'rta (2.6-3.5)	Ichki kommunikatsiyani kuchaytirish, rag'batlantirish tizimini qayta ko'rib chiqish
Yuqori (≥ 3.6)	Eng yaxshi amaliyotlarni boshqa boshqarmalarga tatbiq etish

RCI qiymatlari 0.0 - 2.5 oralig'ida - past, 2.6-3.5 - o'rta, 3.6-5.0 - yuqori risk madaniyatini bildiradi.

Natijalar asosida bank boshqarmalari kesimida risk madaniyatining holati aniqlanadi va past baholangan sohalar uchun trening hamda ichki kommunikatsiya dasturlari ishlab chiqiladi.

RCI tahlili natijalari quyidagicha ko'rinish oldi:

Ushbu jadvalda tanlab olingan 7ta boshqarmalarning xodimlari anonym tarzda taqdim etilgan 25ta so'rovnomani to'ldirishgan va har bir komponentlar bo'yicha baholar boshqarma doirasida o'rtachasi hisoblangan.

3-jadval. Tijorat banki xodimlari bo'yicha Risk Madaniyati Indeksi (RCI) natijalari: boshqarmalar kesimida

Xodim_ID	Department	Xabardorlik	Mas'uliyat	Munosabat	Rag'batlantirish	RCI_xodim	Baholash
E0001	Kredit boshqarmasi	4	4	3	4	4	Yuqori
E0002	To'lovlar boshqarmasi	3	3	3	3	3	O'rta
E0003	Hisoblarni boshqarish boshqarmasi	2	4	4	4	4	Yuqori
E0004	Risklarni boshqarish boshqarmasi	3	3	4	4	3	O'rta
E0005	G'aznachilik boshqarmasi	3	3	3	3	3	O'rta
E0006	Moliyaviy bo'lim	3	3	3	3	3	O'rta
E0007	Mijozlarga xizmat ko'rsatish boshqarmasi	3	2	2	2	2	Past

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ayrim boshqarmalarda riskka nisbatan ongli yondashuv va mas'uliyat darajasi yuqori bo'lsa, ayrim boshqarmalarda bu ko'rsatkich nisbatan past.

Bankning umumiy risk madaniyatini oshirish uchun xodimlar malakasini rivojlantirish, kommunikatsiyani kuchaytirish hamda rag'batlantirish tizimini qayta ko'rib chiqish zarur.


4-jadval. Bank boshqarmalari bo'yicha Risk Madaniyati Indeksi (RCI) yakuniy natijalari

Boshqarma nomi	RCI_department
Kredit boshqarmasi	3.6
To'lovlar boshqarmasi	3.0
Hisoblarni boshqarish boshqarmasi	3.7
Risklarni boshqarish boshqarmasi	3.3
G'aznachilik boshqarmasi	3.1
Moliyaviy bo'lim	2.7
Mijozlarga xizmat ko'rsatish boshqarmasi	2.2

Jadval natijalari tahliliga ko'ra, Kredit boshqarmasi 3.6 ball va Hisoblarni boshqarish boshqarmasi 3.7 ball eng yuqori risk madaniyatiga ega.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish boshqarmasi 2.2 ball past ko'rsatkichni namoyon etdi, bu xodimlarning riskdan xabardorlik va rag'batlantirish darajasini oshirish zarurligini bildiradi.

Boshqa boshqarmalar o'rtacha darajada shakllangan bo'lib, bankda umumiy risk madaniyatini mustahkamlash uchun ichki kommunikatsiya, motivatsiya va trening tizimlarini kuchaytirish talab etiladi.



Rasm-1. Bank boshqarmalari kesimida Risk Madaniyati Index (RCI) natijalari diagrammasi

Rasmda bank boshqarmalari bo'yicha o'rtacha Risk Culture Index (RCI) ko'rsatkichlari tasvirlangan.

Yashil ustunlar - yuqori risk madaniyatini, sariq - o'rta, qizil - past darajadagi boshqarmalarni ifodalaydi.

Eng yuqori RCI Kredit (3.6) va Risklarni boshqarish (3.7) boshqarmalarida kuzatildi, eng past natija esa Mijozlarga xizmat ko'rsatish boshqarmasida (2.2) qayd etildi.

4. XULOSA

Mazkur tadqiqot tijorat banklarida risk madaniyatini baholash va uni boshqarish masalalarining dolzarbligini yana bir bor tasdiqladi. Olib borilgan so'rovnoma asosidagi empirik-amaliy baholash natijalari bank boshqarmalari kesimida risk madaniyati darajasi bir xil shakllanmaganini ko'rsatdi. Ayrim boshqarmalarda riskka nisbatan ongli yondashuv, mas'uliyat va ichki nazorat madaniyati yuqori bo'lsa, ayrim bo'linmalarda ushbu ko'rsatkichlar past darajada ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan Risk Madaniyati Indeksi (Risk Culture Index - RCI) modeli bank xodimlarining riskka bo'lgan munosabatini tizimli va miqdoriy baholash imkonini berdi. Model rahbariyatning yetakchiligi, mas'uliyat va egalik, aloqa va ochiqlik hamda rag'batlantirish va xulq-atvor kabi muhim komponentlarni qamrab olib, risk madaniyatini bank faoliyatining turli darajalarida tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Olingan natijalar RCI yondashuvi bank amaliyotida qo'llash uchun qulay va tushunarli instrument ekanligini ko'rsatdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, risk madaniyati past yoki o'rta darajada shakllangan boshqarmalarda xodimlarning riskdan xabardorligini oshirish, ichki kommunikatsiyani kuchaytirish hamda rag'batlantirish tizimini riskka moslashtirish zarurligi aniqlandi. Yuqori risk madaniyatiga ega bo'lgan bo'linmalarda esa eng yaxshi amaliyotlarni boshqa boshqarmalarga tatbiq etish orqali bank miqyosida risk madaniyatini mustahkamlash mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari tijorat banklarida risk madaniyatini baholash va boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy ahamiyatga ega bo'lib, bank risklarini samarali boshqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot bitta tijorat banki misolida o'tkazilganligi va so'rovnoma ma'lumotlariga asoslanganligi bilan cheklangan bo'lib, kelgusida tadqiqotni bir nechta banklar kesimida, shuningdek obyektiv risk ko'rsatkichlari bilan boyitilgan holda davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1) A Framework for Assessing Risk Culture. Basel, 7 April 2014.
- 2) Corporate governance principles for banks. Bank for International Settlements, Basel, 2015.
- 3) Fritz-Morgenthal, Sebastian & Packham, Natalie. (2015). Does risk culture matter? The relationship between risk culture indicators and stress test results. Journal of Risk Management in Financial Institutions. 9. 1752-8887. 10.69554/NCGI5286.
- 4) Bank of England, Organisational culture and bank risk (Staff Working Paper No. 912, 2021) - J. Suss.

- 5) Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO). (2017). *Enterprise Risk Management - Integrating with Strategy and Performance*. New York: COSO.
- 6) ISO 31000. (2018). *Risk management - Guidelines*. Geneva: International Organization for Standardization.
- 7) Institute of Risk Management. *A Structured Approach to Risk Culture*. - London: IRM, 2019.

ILMIY MAQOLA

EXTERNAL DEBT SUSTAINABILITY IN UZBEKISTAN

Tulkinov Jasurbek

Credit Review specialist at KDB Bank Uzbekistan

* Muallif uchun aloqa: jasurbek.tulkinov@kdb.uz

Qabul qilindi: 02.02.2026 y. | Qayta ko'rib chiqildi: 29.02.2026 y. | Chop etildi: 2026-yil 7-mart

ANNOTATSYA

Mazkur tadqiqot 2019-yildan 2025-yil I choragigacha bo'lgan davrda O'zbekistonning davlat tashqi qarzi dinamikasi, tuzilishi va barqarorligini tahlil qiladi. Tadqiqotda makroiqtisodiy tendensiyalar, qarzning tarkibi kabi ko'rsatkichlar baholandi. Nominal tashqi qarz 2019-yildagi 17,8 mlrd AQSh dollaridan 2025-yil I choragiga kelib 35,6 mlrd AQSh dollarigacha oshganiga qaramay, qarzning YalMga nisbati iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqoriligi va xalqaro zaxiralarning ortishi hisobiga nisbatan barqaror saqlanib qoldi.

KALIT SO'ZLAR: *External public debt, debt sustainability, macroeconomic stability, fiscal deficit, foreign exchange risk, Central Asia, Uzbekistan, public investment, sovereign credit rating.*

1. INTRODUCTION

External borrowing plays a critical role in financing development in emerging economies. For reform-oriented countries such as Uzbekistan, external debt has served as an instrument to speed up the process of infrastructure modernization, energy reform, and social sector development.

Between 2019 and Q1 2025, Uzbekistan experienced rapid economic expansion alongside a substantial increase in public borrowing. While nominal debt levels rose significantly, macroeconomic indicators such as GDP growth, reserve accumulation, and fiscal reforms have contributed to maintaining relative debt sustainability.

This article investigates the following research questions:

1. How has Uzbekistan's external public debt evolved structurally and quantitatively?
2. To what extent is the current debt trajectory sustainable?
3. What macroeconomic and institutional factors influence debt risk?

The objective is to provide an academically grounded assessment of Uzbekistan's external debt position within both domestic and regional contexts.

1.1 Analysis of literature on the topic

Debt sustainability theory traditionally links government borrowing capacity to growth performance, fiscal discipline, and external balance stability. For emerging markets, external debt poses additional risks due to exchange rate exposure and dependence on foreign capital flows.

The IMF's Debt Sustainability Framework emphasizes:

- Debt-to-GDP ratio thresholds,
- Debt service-to-exports ratios,
- Reserve adequacy indicators,
- Sensitivity to macroeconomic shocks.

UNCTAD classifies external debt using three approaches: currency denomination, creditor residence, and jurisdiction of issuance. Recent literature suggests that currency exposure is particularly critical in economies with partially flexible exchange rate regimes.

Empirical research on Central Asia indicates that countries with diversified creditor structures and strong reserve buffers demonstrate greater resilience to external shocks.

This study contributes to the literature by providing an updated and comprehensive empirical review of Uzbekistan's external debt structure up to Q1 2025, incorporating sovereign rating developments and sectoral debt allocation.

2. RESEARCH METHODOLOGY

The study uses a mixed quantitative and institutional analysis approach.

Data sources:

1. Ministry of Economy and Finance of Uzbekistan
2. Central Bank of Uzbekistan
3. IMF Article IV Reports
4. World Bank Economic Updates
5. UNCTAD methodological guidelines
6. Sovereign rating agency reports (Fitch, S&P, Moody's)

Analytical methods:

1. Descriptive statistical analysis of debt dynamics (2019–Q1 2025).
2. Debt-to-GDP and per capita debt ratio analysis.
3. Structural composition analysis (creditor, currency, sectoral allocation).
4. Comparative regional analysis with Central Asian economies.
5. Risk assessment using macro-fiscal indicators (inflation, fiscal deficit, reserves, exchange rate).

The research relies on official, periodically published data to ensure consistency and comparability.

3. RESEARCH METHODOLOGY

Global public debt reached over USD 100 trillion in 2024, equal to about 93–95% of global GDP, and is expected to reach 100% by 2030. Developing countries hold around USD 31 trillion of this total and spent USD 921 billion on interest payments in 2024. On average, they now spend about 6.3 – 6.5% of their export revenue on external debt service, with some nations allocating over 10% — often exceeding their health and education budgets.

Let's look into the TOP 10 countries with the highest government debt in 2025. In 2025, the United States has the highest government debt in the world at USD 32.9 trillion, which is 118.73% of its GDP. Each person in the USA carries about USD 98,204 in debt. Japan has the highest debt-to-GDP ratio at 256.3%, even though its total debt is lower than the USA. China comes second in total debt with USD 15 trillion, but its debt per person is much lower at USD 10,630.

European countries like the United Kingdom, France, and Italy also have high debt levels, with debt per capita around USD 50,000. India has a lower total debt compared to these countries, but also the lowest debt per person — just USD 2,060. Germany has the lowest debt-to-GDP ratio on the list at 62.9% (*Table 1*).

Table 1. TOP 10 countries with the highest government debt in 2025.

#	Country name	External debt	Debt as % of GDP	Debt per capita
1	United States	32.9 trillion	118.73%	98,204
2	China	15 trillion	84.38%	10,630
3	Japan	10.9 trillion	256.3%	87,547
4	United Kingdom	3.4 trillion	99.97%	50,402
5	France	3.4 trillion	109.9%	49,037
6	Italy	3.1 trillion	134.8%	52,501
7	India	3 trillion	83.02%	2,060
8	Germany	2.8 trillion	62.9%	33,994
9	Canada	2.3 trillion	107.5%	57,436
10	Brazil	1.8 trillion	84.68%	8,694

Unit: USD

Overall, while some countries have very high total debt, others carry a heavier burden relative to their economy or population.

The country with the highest debt in the world is unquestionably the United States, whose national debt is more than twice that of any other country. However, the dollar amount of a country's debt is usually considered not by itself, but in relation to the country's overall gross domestic product (GDP) — which represents the country's ability to pay back the debt. Measuring by debt-to-GDP ratio, Lebanon's debt is the highest in the world (*Table 2*).

Table 2. Top 10 countries with the highest external debt, measuring by debt-to-GDP ratio

#	Country name	Debt as % of GDP
1	<u>Lebanon</u>	357.69%
2	<u>Japan</u>	256.3%
3	<u>Sudan</u>	189.6%
4	<u>Eritrea</u>	179.66%
5	<u>Singapore</u>	174.84%
6	<u>Greece</u>	163.9%
7	<u>Argentina</u>	155.41%
8	<u>Italy</u>	134.8%
9	<u>Venezuela</u>	133.61%
10	<u>Cape Verde</u>	124.03%

Several factors contribute to these high debt levels, including the aftermath of the COVID-19 pandemic, economic slowdowns, and ongoing geopolitical instability. Many countries are grappling with increased spending on social programs, infrastructure projects, and defense, while also facing rising interest payments on existing debt. The need for fiscal prudence and structural reforms to boost growth is highlighted as a key challenge for many advanced economies.

3.1 Dynamics of external debt




Figure 1. Dynamics of external debt of Uzbekistan (in USD million)

Between 2022 and Q1 2025, Uzbekistan's total government debt climbed from USD 29.2 billion to USD 42.4 billion, bringing the debt-to-GDP ratio to roughly 35% by end-2024. This trend reflects the government's strategic use of borrowing to support public investment and social programs.

External debt, the country's borrowing from foreign lenders, increased from USD 25.9 billion in 2022 to USD 35.6 billion by Q1 2025. It now makes up about 84–85% of total government debt, highlighting the importance of external financing for large infrastructure projects and budget support. Gross external debt refers to the amount owed to non-residents — governments, international organizations, and foreign banks — and must be repaid in foreign currency.

Domestic debt, which the government owes to local lenders such as banks and institutional investors, also grew significantly — from USD 3.3 billion in 2022 to USD 6.9 billion in Q1 2025. This rise shows increasing reliance on local bond markets to diversify funding. Domestic debt is internal borrowing and does not rely on foreign currency, reducing exposure to exchange-rate risk.

Over these three years, government debt jumped by over 45%, driven largely by external obligations. However, despite the rapid growth, this level remains manageable. Official estimates and independent assessments classify Uzbekistan's external debt risk as low, supported by solid foreign reserves and favorable borrowing terms.




Figure 2. Government debt & Its ratio of GDP (USD million)

Between 2019 and Q1 2025, Uzbekistan’s government debt rose steadily—from USD 17.8 billion to USD 42.4 billion. Over the same period, the government debt-to-GDP ratio increased from 23% in 2019 to a peak of 32% in 2020, then stabilized around 29–30%, slightly falling to 28% by Q1 2025.

Overall, government debt has doubled, but the country’s growing economy has helped keep it manageable. By 2025, the decline in the debt-to-GDP ratio shows Uzbekistan’s strong economic growth, even with higher borrowing.




Figure 3. Government debt per capita, in USD

From 2019 to Q1 2025, Uzbekistan’s government debt per capita more than doubled — rising from USD 475 to nearly USD 960. This steady increase reflects that total government debt has grown significantly faster than the population over the past six years (Figure 3).

4. RESEARCH METHODOLOGY

The study concludes that Uzbekistan’s external public debt remains sustainable under current economic conditions. The stable debt-to-GDP ratio, growing reserves, diversified creditor base, and improved institutional frameworks support this assessment.

However, three structural risks remain:

- 1.High foreign currency exposure,
- 2.Rising debt servicing costs,
- 3.Dependence on external financing for fiscal support.

To ensure long-term sustainability, Uzbekistan should:

- Expand local currency borrowing,
- Strengthen public investment efficiency,
- Maintain fiscal consolidation,
- Diversify export structure,
- Continue structural reforms.

If these measures are sustained, Uzbekistan is positioned to maintain macroeconomic stability and potentially transition toward investment-grade status in the medium term.

RESEARCH METHODOLOGY

- 1) Blanchard, O. (1990). Suggestions for a New Set of Fiscal Indicators. OECD Working Papers.
- 2) International Monetary Fund. (2025). Article IV Consultation Report: Republic of Uzbekistan.

- 3) Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. Official Statistical Publications (2019–2025).
- 4) Central Bank of Uzbekistan. External Debt and Reserve Statistics.
- 5) Reinhart, C., & Rogoff, K. (2010). Growth in a Time of Debt. *American Economic Review*.
- 6) UNCTAD. (2023). International Government Debt Statistics Guide.
- 7) World Bank. (2024). Uzbekistan Economic Update.

ILMIY MAQOLA

MILLIY IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISHIGA EKOLOGIK XARAJATLAR VA YASHIL IQTISODIYOT KO'RSATKICHLARINING TA'SIRI

Zaxidov G'afurjon Erkinovich

i.f.f.d., dots., Qo'qon universiteti

* Bog'lanish uchun: g.zaxidov@kokanduni.uz

Qabul qilindi: 22.01.2026 y. | Qayta ko'rib chiqildi: 03.03.2026 y. | Chop etildi: 2026-yil 7-mart

ANNOTATSIA

Mazkur maqola ekologik xarajatlar va yashil iqtisodiyot indikatorlarining milliy iqtisodiyot barqaror rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiladi. Tadqiqot resurslar samaradorligi, toza energiya sarmoyalari va ekologik soliqlarning YaIM o'sishi, bandlik va iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini qiyosiy statistik ma'lumotlar asosida baholaydi. Natijalar yashil tashabbuslar qisqa muddatda xarajat talab qilishi mumkinligini, biroq o'rta va uzoq muddatda innovatsiyalarni rag'batlantirib, iqtisodiy raqobatbardoshlik va barqarorlikni oshirishini ko'rsatadi. Xulosa sifatida, ekologik omillarni iqtisodiy siyosatda asosiy ko'rsatkich sifatida integratsiya qilish zarurligi asoslab beriladi.

KALIT SO'ZLAR: *Ekologik xarajatlar, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqtisodiy ko'rsatkichlar.*

1. KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiy muammolar, bir tomondan, an'anaviy iqtisodiy o'sishning ekotizimlar va tabiiy resurslarga bo'lgan salbiy ta'siri, ikkinchi tomondan, iqtisodiy barqarorlik va farovonlikni ta'minlash zarurati o'rtasidagi qarama-qarshilikni tobora keskinlashtirmoqda. An'anaviy iqtisodiy o'lchovlar, xususan YaIM, ishlab chiqarish va iste'molning miqdoriy o'sishini aks ettirsa-da, bu o'sishning ekologik xarajatlari – atrof-muhitning ifloslanishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi va resurslarning kamayishi – odatda hisob-kitoblardan chetda qoladi. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi va resurslar tanqisligi kabi ekologik inqirozlar iqtisodiyotlar uchun real makroiqtisodiy xavf manbai sifatida paydo bo'ldi. Aynan shu global kontekstda ekologik xarajatlar tushunchasi va uni boshqarish uchun asosiy vosita sifatida yashil iqtisodiyot tamoyillari jahon miqyosidagi munozara va siyosat amaliyotining markaziga aylandi. Ushbu kirish bo'limining maqsadi, ekologik xarajatlarning milliy iqtisodiyotga ta'siri, yashil iqtisodiyotning mazmuni va uning iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi indikatorlari, shuningdek, ularning an'anaviy iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtirilishi muammosini muhokama qilishdir.

Ekologik xarajatlar deganda, inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan atrof-muhitning buzilishi va tabiiy kapitalning yo'qolishini barqarorlashtirish, oldini olish yoki bartaraf etish uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy xarajatlar tushuniladi. Bunga ifloslantiruvchi moddalarni tozalash, degradatsiyalangan erlarni tiklash, chiqindilarni boshqarish, shuningdek, salbiy tashqi ta'sirlarni (masalan, sog'liqni saqlash xarajatlari) qoplash uchun sarf etiladigan mablag'lar kiradi. Uzoq vaqt davomida bu xarajatlarni e'tiborsiz qoldirish ekologik kreditning "halok bo'lishiga" olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiy o'sishning o'zini barbod qiladi. Yashil iqtisodiyot esa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi ta'rifiga ko'ra, inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilaydigan, shu bilan birga atrof-muhit xavflarini va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyotdir. Bu tushunchaning mohiyati iqtisodiy faoliyatni qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya va resurslarning samarali va tejimli ishlatilishi, chiqindilarni minimallashtirish va barqarorlikni rag'batlantiruvchi infrastrukturaga asoslangan, yuqori darajadagi innovatsiyalar bilan ta'minlangan tizimga aylantirishdir.

Shunday qilib, ushbu maqolaning asosiy tadqiqot muammosi shundan iboratki, hozirgi kunda ekologik xarajatlarni hisobga olgan holda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish qisqa muddatda milliy iqtisodiyotning an'anaviy ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatadi va bu jarayon uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlik va

farovonlikni qanday shakllantiradi? Bizning asosiy farazimiz shundaki, ekologik xarajatlarni intizomli ravishda hisobga olgan holda o'tkazilgan yashil transformatsiya, dastlabki sarmoya va moslashuv xarajatlarini talab qilsa-da, uning ijobiy ta'siri innovatsiyalar, yangi ish o'rinlari, resurslardan mustaqillik va ekologik risklarning pasayishi shaklida namoyon bo'lib, natijada iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va chidamliligi oshadi. Ushbu maqola yordamida biz jahon tajribasini tahlil qilish va mavjud empirik ma'lumotlarni umumlashtirish orqali, milliy iqtisodiyot siyosati va strategiyalarini shakllantirishda ekologik omillarni integratsiyalashning zarurligi va samaradorligi haqida dalillar asosidagi xulosa chiqarishga intilamiz.

2. ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik iqtisodiyot va barqaror rivojlanish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar uzoq tarixga ega. K. Boulding "ochiq" va "yopiq" iqtisodiyot haqidagi tushunchani ilgari surgan holda, Yer resurslari cheklanganligini tan olgan holda iqtisodiyotni ekologik tizimning ochilmagan subsistemi sifatida qarash zarurligini ta'kidlaydi (Boulding, 1966). H. Daly esa barqaror holatdagi iqtisodiyot konsepsiyasini taklif qilib, ekologik chegara va ekvitatik taqsimot doirasida ishlashi kerak bo'lgan iqtisodiy o'sishning miqdoriy cheklovlarini belgiladi (Daly, 1991). Ushbu asosiy ishlar ekologik xarajatlar va ularning iqtisodiy tizimlarga integratsiyasi masalasini hozirgi kundagi munozaralarning markaziga qo'ydi.

Zamonaviy tadqiqotlar ekologik xarajatlarni aniqlashtirish va ularni milliy hisob-kitoblarga kiritish usullariga e'tibor qaratadi. Masalan, Yashil YaIM kabi tushunchalar va Tabiiy Kapital hisobi kabi metodologiyalar rivojlanmoqda (World Bank, 2021). Ushbu indekslar an'anaviy YaIMni ekologik yo'qotishlar va resurslarning eskirishi qiymati bo'yicha tuzatishga harakat qiladi, natijada iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy barqarorligi haqida yaxshiroq tasavvur beradi. Biroq, bu usullarni standartlashtirish va ularni keng qo'llash bo'yicha ancha ish qilinishi kerak. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha empirik tadqiqotlar munozarali bo'lib qolmoqda. Ba'zi olimlar, xususan qayta tiklanmaydigan resurslarga qaram bo'lgan iqtisodiyotlar uchun, qat'iy ekologik reglamentatsiyalar va yuqori ekologik soliqlarning qisqa muddatli o'sish sur'atlarini pasaytirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Boshqa tomondan, keng qamrovli tadqiqotlar, masalan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Yevropa Komissiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar, energiya samaradorligi va chiqindilarni boshqarish sohasidagi investitsiyalar qo'shimcha ish o'rinlari yaratish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash orqali ijobiy ish bilan ta'minlanish va o'sishga olib kelishini ko'rsatadi (ILO & European Commission, 2021).

Muhim yo'nalishlardan biri – "Porter gipotezasi" deb nomlanuvchi tushuncha bo'lib, unda aqlli ekologik me'yorlar va standartlar innovatsiyani rag'batlantirishi va shu bilan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishi mumkinligi aytilgan (Porter & van der Linde, 1995). Bunga qo'shimcha ravishda, ekologik soliq islohotlari bo'yicha adabiyotlar mehnat va kapital soliqlaridan ekologik zararlarga soliqqa o'tish iqtisodiy samaradorlikni oshirishi va barqaror texnologiyalarni rivojlantirishga turtki berishi mumkinligini ko'rsatadi. Biroq, bu jarayonning samaradorligi uni amalga oshirish dizayniga, jumladan soliq darajalari, kompensatsiya mexanizmlari va ushbu siyosatlarining taqsimot ta'siriga bog'liq. Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, ekologik xarajatlar va yashil iqtisodiyotning iqtisodiy natijalarga ta'siri bir qancha omillarga, jumladan, mamlakatning rivojlanish darajasiga, dastlabki sanoat tuzilmasi va siyosat amaliyotining sifatiga bog'liq bo'lgan murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Ushbu maqola o'tmishdagi ishlarni umumlashtirib, ular orasidagi bo'shliqlarni, xususan, turli mamlakatlar guruhlariga uchun uzoq muddatli makroiqtisodiy natijalarni solishtirishni tahlil qilish orqali to'ldirishga intiladi.

3. TAHLILLAR VA NATIJALAR


Tadqiqotning tahliliy bosqichida to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish natijasida ekologik xarajatlar va yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari o'rtasidagi bir qator muhim bog'liqliklar va ularning an'anaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri aniqlandi. Deskriptiv statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar guruhida qayta tiklanadigan energiya manbalariga sarmoya va chiqindilarni qayta ishlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqori. Masalan, Shvetsiya va Daniyada qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olingan elektr energiyasining ulushi 2022 yilga kelib 50% dan oshgan bo'lsa, resurslarga bog'liq iqtisodiyotlarda bu ko'rsatkich hali ham 10% atrofida aylanmoqda. Shuningdek, ekologik soliqlarning soliq tizimidagi ulushi rivojlangan mamlakatlarda o'rtacha 5-8% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich rivojlanayotgan va resursga bog'liq iqtisodiyotlarda 2-4% oralig'ida bo'lgan.

Tahlil natijalarini taqqoslash va vizualizatsiya qilish uchun quyidagi jadvallar va rasmlar keltirilgan.

Jadval 1: Tanlangan mamlakatlar guruhlari bo'yicha yashil iqtisodiyot va iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymatlari (2015-2022)

Mamlakat guruhi	Qayta tiklanadigan energiya sarmoyasi (% YaIM)	Bir birlik YaIM uchun energiya sarfi (MJ/\$)	Barqaror energiya ulushi (%)	O'rtacha yillik YaIM o'sishi (%)	Aholi jon boshiga daromad o'sishi (%)
Rivojlangan	1.8	6.5	38.7	1.6	1.2
Rivojlanayotgan	0.9	12.1	21.4	3.8	2.9
Resursga bog'liq	0.4	18.3	9.5	1.1	0.3

Jadval 1 dan ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar yashil sarmoyaga nisbatan ko'proq mablag' sarflaydi, energiya samaradorligi yuqori va barqaror energiya ulushi sezilarli darajada yuqori. Qiziqarlisi shundaki, bu mamlakatlarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati rivojlanayotgan mamlakatlardan past bo'lsa-da, bu farq asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning 'selli' o'sish bosqichida ekanligi bilan izohlanadi va aholi jon boshiga daromad o'sishi barqaror ijobiy tendentsiyani saqlab qolmoqda. Resursga bog'liq iqtisodiyotlar past yashil sarmoya va past samaradorlik tufayli eng past o'sish ko'rsatkichlariga ega, bu ularning barqarorlikka bo'lgan zaifligini ko'rsatadi.


2010-2022 yillarda yashil sarmoya va YaIM o'sishining dinamika tahlili**Rasm 1. 2010-2022 yillar davomida qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya va yalpi ichki mahsulot o'sishining munosabati (tanlangan rivojlangan mamlakatlar misolida)**

Rasmda bitta o'qda YaIM o'sishi foizi, ikkinchi o'qda qayta tiklanadigan energiya sarmoyasining YaIMdagi ulushi foizi ko'rsatilgan. 2010-2022 yillar oralig'ida ikkala ko'rsatkichning harakatini aks ettiruvchi chiziqlar tasvirlangan. Grafikdan ko'rinadiki, qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya asta-sekin o'sib borgan davrlarda (masalan, 2014-2018), YaIM o'sishi barqarorlashgan yoki sal ko'tarilgan. 2020 yildagi keskin tushish (pandemiya tufayli) ham ikkala ko'rsatkichga ta'sir ko'rsatgan, ammo keyingi tiklanish davrida yashil sarmoya avvalgi darajasidan ham yuqori ko'rsatkichga erishgan.

Jadval 2: Yashil ish o'rinlari va an'anaviy sektorlardagi ish bilan ta'minlanish dinamikasi (EU-27, 2015 va 2022 yillar)

Sektor	2015 yildagi ish o'rinlari (ming)	2022 yildagi ish o'rinlari (ming)	O'zgarish (%)
Qayta tiklanadigan energiya	1,150	1,850	+60.9
Energiya samaradorligi	900	1,550	+72.2
Chiqindilarni boshqarish	600	750	+25.0
An'anaviy yoqilg'i sanoati	1,100	950	-13.6

Jadval 2 Yevropa Ittifoqi misolida yashil iqtisodiyot sektorlarida ish o'rinlarining jadal o'sishini, shu bilan birga an'anaviy yoqilg'i sanoatida esa ish o'rinlarining qisqarish tendentsiyasini aniq ko'rsatadi. Bu jarayon "yashil transformatsiya" ning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni yangi, barqaror sohalarda ish o'rinlari yaratilishi eski, barqaror bo'lmagan faoliyatdagi ish o'rinlarining yo'qolishini qisman yoki to'liq qoplashi mumkin.



Rasm 2: Tabiiy resurslar rentasining YalMdagi ulushi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabat (tanlangan mamlakatlar misolida).

Rasmda har bir nuqta bitta mamlakatni ifodalaydi. Gorizontall o'qda resurs rentasining YalMdagi ulushi foizi, vertikal o'qda 2010-2022 yillardagi o'rtacha yillik YalM o'sishi foizi ko'rsatilgan. Rasmda aniq salbiy korrelyatsiya ko'rinadi: resurs rentasining ulushi qancha yuqori bo'lsa (masalan, 25-40%), o'rtacha o'sish sur'ati shunchalik past (yoki hatto salbiy) bo'ladi. Resurs rentasining ulushi past bo'lgan mamlakatlar (5-15%) esa yuqori va barqarorroq o'sish sur'atlariga ega.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari va ijobiy iqtisodiy natijalar, ayniqsa, uzoq muddatli barqarorlik va chidamlilik kontekstida, o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjud. Resurs samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritish dastlabki xarajatlarni talab qilsa ham, ular energiya xavfsizligini oshiradi, import qilinadigan yoqilg'iga qaramlikni kamaytiradi va innovatsion sohalarda yangi ish o'rinlari yaratadi. Buning aksi, tabiiy resurslarga haddan tashqari bog'liqlik va ekologik xarajatlarni e'tiborsiz qoldirish iqtisodiy o'sishning o'zgaruvchanligi va uzoq muddatda zaiflashuviga olib keladi.

4. MUHOKAMA

Olingan natijalar bizning dastlabki farazimizni, ya'ni ekologik xarajatlar va yashil iqtisodiyot tamoyillarini intizomli ravishda qamrab olish nafaqat ekologik jihatdan zarur, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va farovonlik uchun ham muhim strategik qadam ekanligini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil transformatsiya nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq, balki chuqur iqtisodiy qayta qurish jarayonidir. Qayta tiklanadigan energiya va energiya samaradorligi sohasidagi ish o'rinlarining jadal o'sishi (Jadval 2) an'anaviy sanoatdagi ish o'rinlari yo'qolishini to'liq qoplashga qodir bo'lmasa ham, yangi, yuqori malakali ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash imkoniyatini ochib beradi. Bu muhim jihat, chunki ko'pincha yashil siyosatlariga qarshi chiqiladigan asosiy argument – bu ishsizlikning oshishi xavfi.

Porter gipotezasi (Porter & van der Linde, 1995) bizning kuzatishlarimiz bilan mos keladi: qat'iy ekologik me'yorlar va yashil sarmoya innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali unumdorlikni oshirishi mumkin. Misol uchun, yuqori energiya samaradorligi talablari yangi texnologiyalarni rivojlantirishga va sanoat jarayonlarini modernizatsiya qilishga undaydi, bu esa o'z navbatida xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi. Shuningdek, resursga bog'liq iqtisodiyotlarning yomon natijalari (Jadval 1 va Rasm 2) mamlakatlarni resurslar tannarxining o'zgaruvchanligi va ekologik degradatsiya xavfidan himoya qilish uchun iqtisodiy tarkibni diversifikatsiyalashning ahamiyatini yana bir

bor ta'kidlaydi. Bu mamlakatlarda "yashil o'tish" nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy chidamlilikni mustahkamlash va "resurslarning la'nati" dan qochish uchun strategik zaruratdir.

Biroq, muhokama qilish kerakki, bu o'tish adolatli bo'lishi kerak. Yashil siyosatlarining taqsimot ta'siri, ya'ni qimmat energiya xarajatlari va o'zgartirish xarajatlari kambag'al aholi qatlamlari yoki an'anaviy sanoat markazlariga qanday ta'sir qilishi, hal qiluvchi ahamiyatga ega. Natijada olingan ijobiy makroiqtisodiy natijalar qo'shimcha ijtimoiy himoya choralari, qayta tayyorlash dasturlari va kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash choralarisiz amalga oshirilmaligi mumkin. Demak, samarali yashil transformatsiya nafaqat ekologik, balki keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatlar majmuasini talab qiladi.

5. XULOSA

Ushbu ilmiy maqola doirasida amalga oshirilgan keng qamrovli tahlil va tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik xarajatlari va yashil iqtisodiyot ko'rsatkichlari bilan an'anaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Ekologik xarajatlarni hisobga olmaslik va tabiiy resurslarni haddan tashqari ekspluatatsiya qilish qisqa muddatli iqtisodiy foyda keltirishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda bu yo'l iqtisodiy o'sishning o'zgaruvchanligiga, resurslar tanqisligi xavfining oshishiga va iqtisodiyotning chidamliligining pasayishiga olib keladi. Aksincha, atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlarini faol ravishda boshqarish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini qabul qilish – xususan, qayta tiklanadigan energiyaga sarmoya kiritish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, ekologik soliqlarni joriy etish – qisqa muddatda muayyan moslashuv xarajatlarini talab qilsa ham, ular iqtisodiyotga uzoq muddatda barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu ijobiy ta'sir bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi: birinchidan, yangi, innovatsion sohalarda, ayniqsa barqaror energiya, energiya tejovchi texnologiyalar va aylana iqtisodiyot sohasida yangi ish o'rinlari yaratiladi; ikkinchidan, resurs samaradorligi va import qilinadigan yoqilg'iga qaramlikning kamayishi orqali milliy iqtisodiyotning energiya xavfsizligi va barqarorligi oshadi; uchinchidan, ekologik risklar va ular bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy yo'qotishlar (masalan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini) kamayadi; to'rtinchidan, "yashil" texnologiyalar va mahsulotlarning jahon bozorida talabini oshishi bilan raqobatbardoshlikni saqlab qolish va oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik majburiyat, balki kelajakdagi iqtisodiy rivojlanish, barqarorlik va farovonlikni ta'minlash uchun strategik investitsiyadir.

Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, u siyosat yaratuvchilar, iqtisodchilar va rejalashtiruvchilar uchun qarorlar qabul qilishda qisqa muddatli natijalardan ko'ra uzoq muddatli barqarorlik va chidamlilikni ustuvor qo'yish zarurligining dalillar asosidagi asosini taqdim etadi. Milliy hisob-kitob tizimlariga ekologik xarajatlarni kiritish, yashil sarmoyalarni rag'batlantirish va adolatli o'tishni ta'minlash uchun ijtimoiy mexanizmlarni ishlab chiqish zamonaviy iqtisodiy siyosatning ajralmas elementlari bo'lishi kerak. Keyingi tadqiqotlar ushbu umumiy tendentsiyalarni aniqroq ekonometrik modellar yordamida tekshirishga, shuningdek, turli mintaqalar va iqtisodiy tuzilmalar uchun optimal yashil siyosatlar paketlarini ishlab chiqishga qaratilishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1) Boulding, K. E. (1966). The economics of the coming spaceship earth. In H. Jarrett (Ed.), *Environmental quality in a growing economy* (pp. 3-14). Johns Hopkins University Press.
- 2) Daly, H. E. (1991). *Steady-state economics* (2nd ed.). Island Press.
- 3) World Bank. (2021). *The Changing Wealth of Nations 2021: Managing Assets for the Future*. World Bank. <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-1590-4>
- 4) International Labour Organization (ILO) & European Commission. (2021). *Green employment and the circular economy: A review of labour market trends and policies*. Publications Office of the European Union.
- 5) Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment-competitiveness relationship. *Journal of Economic Perspectives*, 9(4), 97–118. <https://doi.org/10.1257/jep.9.4.97>
- 6) Eurostat. (2023). Sustainable development indicators. Retrieved from <https://ec.europa.eu/eurostat/web/sdi/indicators>
- 7) United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. UNEP.
- 8) Stern, N. (2007). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge University Press.

- 9) OECD. (2017). Green Growth Indicators 2017. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264268586-en>
- 10) IMF. (2022). World Economic Outlook Database, October 2022. International Monetary Fund. Retrieved from <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database/2022/October>

A ILOVA. TADQIQ QILINGAN MUASSASALAR RO'YXATI

Ushbu ilovada tadqiqot doirasida SI sohasidagi siyosatlar tahlil qilingan 127 ta oliy ta'lim muassasasining ro'yxati keltirilgan. Normativ hujjatlar 2024-yil sentyabr — 2025-yil yanvar davrida yig'ilgan.

A.1 Amerika Qo'shma Shtatlari (n=31)

R1 tadqiqot universitetlari: Stenford universiteti, Massachusetts texnologiya instituti, Garvard universiteti, Yel universiteti, Prinston universiteti, Kolumbiya universiteti, Berkli Kaliforniya universiteti, Michigan universiteti, Karnegi-Mellon universiteti, Pensilvaniya universiteti, Dyuk universiteti, Shimoli-G'arbiy universitet, Chikago universiteti, Ostindagi Texas universiteti, Los-Anjeles Kaliforniya universiteti, Vashington universiteti, Medisondagi Viskonsin universiteti, Kornell universiteti, Jons Hopkins universiteti, Urbana-Shampeyndagi Illinoys universiteti.

R2 va kompleks universitetlar: Jorj Meyson universiteti, Denver universiteti, San-Diyego shtat universiteti, Markaziy Florida universiteti, Portlend shtat universiteti, Boyse shtat universiteti, Klivlend shtat universiteti.

Jamoat kollejlari: Miami Dade College, Northern Virginia Community College, Austin Community College, Santa Monica College.

A.2 Yevropa Ittifoqi (n=28)

Shveysariya federal texnologiya instituti (Shveysariya), Lyoven katolik universiteti (Belgiya), Amsterdam universiteti (Niderlandiya), Myunxen texnika universiteti (Germaniya), RWTH Aachen (Germaniya), Myunxen Lyudvig-Maksimilian universiteti (Germaniya), Berlin Gumboldt universiteti (Germaniya), Sorbonna (Fransiya), Sciences Po (Fransiya), Lozanna federal politexnika maktabi (Shveysariya), Bolonya universiteti (Italiya), Milan politexnika instituti (Italiya), Barselona universiteti (Ispaniya), Madrid muxtor universiteti (Ispaniya), Delft texnika universiteti (Niderlandiya), Leyden universiteti (Niderlandiya), Kopengagen universiteti (Daniya), Uppsala universiteti (Shvetsiya), Xelsinki universiteti (Finlyandiya), Vena universiteti (Avstriya), Dublin Trinit kolleji (Irlandiya), Dublin universitet kolleji (Irlandiya), Varshava universiteti (Polsha), Karl universiteti (Chexiya), Lissabon universiteti (Portugaliya), Gent universiteti (Belgiya), Lyoven katolik universiteti (Belgiya), Groningen universiteti (Niderlandiya).

A.3 Buyuk Britaniya (n=22)

Rassel guruhi: Oksford universiteti, Kembrij universiteti, London Imperial kolleji, London universitet kolleji, London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi, London Qirol kolleji, Edinburg universiteti, Manchester universiteti, Bristol universiteti, Uorik universiteti, Glazgo universiteti, Birmingem universiteti, Lids universiteti, Sheffild universiteti, Nottingem universiteti, Sautgempton universiteti, Liverpul universiteti, Nyukasl universiteti, London Qirol Meri universiteti.

Post-92 universitetlar: Oksford Bruks, Manchester metropoliten universiteti, Lids Bekket.

A.4 Osiyo (n=29)

Sharqiy Osiyo: Singapur Milliy universiteti, Nanyan texnologiya universiteti, Singapur menejment universiteti, Gonkong universiteti, Gonkong Xitoy universiteti, Gonkong fan va texnologiya universiteti, Pekin universiteti, Sinxua universiteti, Fudan universiteti, Shanxay Szyao Tun universiteti, Tokio universiteti, Kioto universiteti, Vaseda universiteti, Seul Milliy universiteti, KAIST, Koreya universiteti, Tayvan Milliy universiteti.

Janubiy-Sharqiy Osiyo: Chulalongkorn universiteti (Tailand), Malayya universiteti (Malayziya), Malayziya Milliy universiteti, Filippin universiteti.

Fors ko'rfazi va Janubiy Osiyo: Qirol Abdullo fan va texnologiya universiteti (Saudiya Arabistoni), Qirol Saud universiteti (Saudiya Arabistoni), NYU Abu Dhabi (BAA), Xalifa universiteti (BAA), Sharja Amerika universiteti (BAA), Qatar universiteti, Bombay Hind texnologiya instituti (Hindiston), Bangalor Hind fan instituti (Hindiston).

A.5 Sobiq sovet davlatlari (n=17)

Bolliqbo'yi davlatlari: Tartu universiteti (Estoniya), Tallin texnika universiteti (Estoniya), Vilnyus universiteti (Litva), Riga texnika universiteti (Latviya), Latviya universiteti.

Markaziy Osiyo: Nozarboyev universiteti (Qozog'iston), Al-Forobiy nomidagi Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston), KIMEP universiteti (Qozog'iston), Toshkentdagi Vestminster xalqaro universiteti (O'zbekiston), O'zbekiston Milliy universiteti.

Rossiya: “Oliy iqtisodiyot maktabi” milliy tadqiqot universiteti, ITMO universiteti, M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti.

Ukraina va Kavkaz: “Kiyev-Mohila akademiyasi” Milliy universiteti (Ukraina), Tbilisi davlat universiteti (Gruziya), ADA universiteti (Ozarbayjon).

Eslatma: Ushbu ro'yxat SI sohasidagi ommaviy siyosat hujjatlari tahlil qilingan muassasalarni o'z ichiga oladi. Ro'yxatga kiritilish ma'qullashni anglatmaydi. Tahlil tadqiqot davrida (2024-yil sentyabr — 2025-yil yanvar) mavjud bo'lgan hujjatlarni aks ettiradi.

ILMIY MAQOLA

ТАРКИБИЙ ЎЗГАРИШЛАРГА ЯНГИ НАЗАР: ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ИҚТИСОДИЙ ТРАНСФОРМАЦИЯНИ БАҲОЛАШ

Жамолiddин Исмаилов

Давлат сиёсати ва бошқаруви академиясинг Таҳлил ва тадқиқот соҳасидаги компетенциялар маркази директори

* Bog'lanish uchun: jamoliddin1983@gmail.com

Qabul qilindi: 22.01.2026 y. | Qayta ko'rib chiqildi: 03.03.2026 y. | Chop etildi: 2026-yil 7-mart

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Янги Ўзбекистон иқтисодиётидаги таркибий трансформация жараёнлари таҳлил қилинган. Иқтисодий ўсиш динамикаси, тармоқлар таркибидаги ўзгаришлар ҳамда иқтисодий ўсишнинг янги драйверлари баҳоланган. Шунингдек, технологик ривожланиш ва илмий-тадқиқот ишлари интенсивлиги асосида таркибий ўзгаришларнинг миқдорий баҳоси келтирилган. Таҳлил натижалари сўнгги йилларда ижобий силжишлар мавжудлигини, бироқ юқори технологияли тармоқларни ривожлантириш зарурати сақланиб қолаётганини кўрсатади. Мақолада иқтисодий сиёсатни такомиллаштириш бўйича амалий таклифлар илгари сурилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: *Таркибий трансформация, иқтисодий ўсиш, sanoatlashтириш, технологик ривожланиш, илмий-тадқиқот фаолияти*

1. KIRISH

Мамлакатимизда ҳаётнинг барча жабҳаларини қамраб олувчи кенг қўламли ислохотлар амалга оширилмоқда. “Ўзбекистон – 2030” стратегиясига мувофиқ, 2030 йилга бориб республика барқарор иқтисодий ривожланишни таъминловчи, даромади ўртачадан юқори бўлган давлатлар қаторига киришни мақсад қилган. Ушбу мақсадга эришиш учун иқтисодий ўсишнинг юқори суръатлари ва иқтисодиётда чуқур таркибий ўзгаришлар зарур.

“Таркибий ўзгаришлар” тушунчаси XX асрнинг ўрталарида ривожланаётган иқтисодий назариячилар орасида пайдо бўлди. Бу тушунча ресурсларнинг “анъанавий” паст унумдорликка эга бўлган (масалан, қишлоқ хўжалиги) соҳалардан “замонавий” юқори унумдорликка эга бўлган (масалан, sanoat) соҳаларга ўтишини, шунингдек, бу ўзгаришнинг иқтисодий ўсишга таъсирини тушунишга қаратилган иқтисодий жараёнларни таҳлил қилиш учун ишлаб чиқилган.¹

Замонавий иқтисодиёт назарияси ва амалиёти таркибий ўзгаришларнинг иқтисодий ўсишдан ташқари бошқа ижтимоий-иқтисодий жараёнлардаги аҳамияти юқорилигини кўрсатмоқда.²

Таркибий ўзгаришлар рақобатдошли, ташқи зарбаларга бардош

бера оладиган, барқарор ва инклюзив ўсишни таъминловчи, қашшоқликни камайтирадиган ва ҳар бир инсон учун фаровонликни таъминлайдиган иқтисодиётга ўтиш учун зарур деб тушунилади.³ Шунинг учун давлат

Таркибий трансформация (ёки таркибий ўзгаришлар) – бу мамлакат иқтисодиётининг таркибий тузилишини ишлаб чиқиш, қўшимча қиймат ва технологик жиҳатдан самараси юқорироқ бўлган фаолият, тармоқ ва соҳаларга йўналтириш жараёнидир.

¹ Lewis, W. A., 1954. Economic Development with Unlimited Supplies of Labor. *Manchester School of Economic and Social Studies*, Issue 22, pp. 139-191. Kuznets, S., 1955. Economic Growth and Income Inequality. *The American Economic Review*, March, 45(1), pp. 1-28.


² Ivan D. Trofimov. *The Effects of Structural Change on Economic Growth: A Panel Data Analysis*. *Panoeconomicus* 70(3):1-43, May 2023

³ UNCTAD, 2016. *Virtual institute teaching material on Structural transformation and Industrial policy*, New York and Geneva: UNCTAD Virtual Institute.

иқтисодий сиёсатида иқтисодиётнинг таркибий трансформацияси масаласи ҳар доим муҳим ўринда туриб келади.

Ўзбекистон иқтисодий ўсиш бўйича самарали ўсаётган малкатлар қаторига киради. 2024 йил натижаларига кўра мамлакат ялпи ички маҳсулоти (кейинги ўринларда – ЯИМ) 1454573,9 млрд.сўмни ташкил этди, бу аҳоли жон бошига 39131,4 минг сўмга тенг. Республикамиз мустақиллигининг дастлабки давридаги иқтисодий пасайишдан сўнг, 1996 йилдан бери Ўзбекистон ялпи маҳсулоти ҳар йили ўсиб келмоқда.

1991 йилда мамлакатимиз харид қобилиятини инобатга олинган аҳоли жон бошига ЯИМи Хитойдан ташқари бошқа қўшни давлатлар билан солиштирилганда паст бўлган (1-расмга қаранг).



1-расм. Ўзбекистон ва хорижий давлатлар ўртасидаги аҳоли жон бошига ялпи ички маҳсулотнинг нисбати, маротаба*

* Нисбатлар харид қобилияти паритети асосидаги аҳоли жон бошига ЯИМ (доимий нархларда - 2021 йилдаги халқаро доллар ўлчовида) асосида ҳисобланган.

Манба: муаллиф томонидан Жаҳон банкининг World Development Indicators (2024) маълумотлар базасидаги кўрсаткичлар асосида ҳисобланган


Ўзбекистон юқори иқтисодий ўсиш сурати натижасида Қирғизистон ва Тожикистондан илгарлаб кетган бўлса, Россия ва Қозоғистон билан солиштирилганда фарқ сезиларли камайди. Масалан, 2016-2023 йилларда охириги икки давлат ва Ўзбекистон ўртасидаги тафовут 11 % ва 13% камайди.

Шу билан бирга, мазкур давлатларнинг мустақилликдан олдин ЯИМлари сезиларли даражада юқори бўлганлиги ва уларнинг ўсиш суръатлари ижобий бўлганлиги сабабли, Ўзбекистоннинг нисбатан тезроқ ўсиш суръати яқин келажакда ҳар икки давлатга етиб олиш учун етарли эмас. Агар мазкур кўрсаткичлар учун 2016-2023 йиллардаги тенденциялар уч давлатда сақланиб қолса, оддий чизикли модель Ўзбекистон Қозоғистонни 2058 йилда, Россияни эса 2066 йилда етиб олишини башорат қилади. (2-расмга қаранг).

Мамлакатимиз бу икки қўшимизга етиб олиши учун қўшимча манбалар ва жадал ўсиш йўллари излаши керак. Бу эса мамлакат иқтисодиётининг таркибий ўзгаришларини жаддаллаштириш, самараси юқорироқ бўлган фаолият, тармоқ ва соҳаларга йўналтиришни талаб қилади.

UN-Habitat, U. N. H. S. P., 2016. *Structural transformation in developing countries: Cross regional analysis*, Nairobi: UNON, publishing services section (Printer).

UN-OHRLLS, 2019. *Review of Progress made in structural economic transformation in Euro-Asian landlocked developing countries (LLDCs)*



И2-расм. Россия ва Қозоғистон билан аҳоли жон бошига ЯИМ бўйича етиб олиш проекцияси

Манба: 1-расмда келтирилган маълумотлар асосида муаллиф томонидан тўғри чизикли тренд модели орқали ҳисобланган.

Шу билан бирга, мазкур давлатларнинг мустақилликдан олдин ЯИМлари сезиларли даражада юқори бўлганлиги ва уларнинг ўсиш суръатлари ижобий бўлганлиги сабабли, Ўзбекистоннинг нисбатан тезроқ ўсиш суръати яқин келажакда ҳар икки давлатга етиб олиш учун етарли эмас. Агар мазкур кўрсаткичлар учун 2016-2023 йиллардаги тенденциялар уч давлатда сақланиб қолса, оддий чизикли модель Ўзбекистон Қозоғистонни 2058 йилда, Россияни эса 2066 йилда етиб олишини башорат қилади. (2-расмга қаранг).

Мамлакатимиз бу икки қўшимизга етиб олиши учун қўшимча манбалар ва жадал ўсиш йўллари излаши керак. Бу эса мамлакат иқтисодиётининг таркибий ўзгаришларини жадаллаштириш, самараси юқорироқ бўлган фаолият, тармоқ ва соҳаларга йўналтиришни талаб қилади.

2. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЙЎЛИ: ЯНГИ ИНДУСТРИАЛ СИЁСАТИ ВА ЯНГИ ДРАЙВЕРЛАР

1991 йилда мустақилликка эришган Ўзбекистон иқтисодиёти марказлашган режали тизимдан бозор иқтисодиётига ўтиш бўйича мураккаб трансформация жараёнини бошдан кечирди.


1990-йилларда иқтисодий сиёсат асосан инқироз оқибатларини юмшатиш, бозор иқтисодиётига босқичма-босқич ўтиш, давлат назоратидаги ислохотлар орқали барқарорликни таъминлашга қаратилган эди. Бу даврда иқтисодиёт таркибида саноат улуши пасайиб, савдо ва хизматлар соҳасининг улуши ортиб борди.

2000-йилларда иқтисодий сиёсат давлат томонидан йўналтирилган саноатлаштириш ва импорт ўрнини босиш стратегияси асосида амалга оширилди. Ялпи ички маҳсулот таркибида саноат, шунингдек, транспорт ва алоқа соҳаларининг улуши аста-секин ўсди. Шу билан бирга, маълум ютуқларга қарамай, мамлакат иқтисодиёти нисбатан ёпиқ ҳолатда сақланиб қолди.


2010–2016 йилларда иқтисодиёт таркибида сезиларли ўзгариш кузатилмади. Таркибий ислохотлар нуктаи назардан мазкур даврни секин суръатдаги ўзгаришлар босқичи, деб таърифлаш мумкин. Масалан, ушбу йиллар мобайнида ЯИМда саноат улуши 2 фоизга ошган бўлса, қишлоқ хўжалиги улуши шу даражада қисқарди (3-расмга қаранг).

Ҳозирги ислохотлар босқичи иқтисодиётнинг фаоллашишига ва унинг таркибий трансформациясининг сезиларли даражада жадаллашишига олиб келди. Бундай вазиятни иқтисодиётдаги ренессанс, яъни ўйғониш даври, деб аташ муболаға бўлмайди. Қайта ишлаш саноати, яъни юқори қўшимча қиймат ва технологиялар билан фарқланадиган тармоқлар улуши 2024 йилга келиб 2010 йилга нисбатан икки баробарга ошди (3-расмга қаранг).

Бундай таркибий ўзгаришлар иқтисодий ўсишнинг янги драйверларини юзага чиқарди. Агар 2011-2016 йилларда ялпи ички маҳсулотнинг ўртача йиллик ўсишининг 7 фоизини 1,8 фоиз пунктни (барча ўсишнинг чорак қисмидан кўпроғини) таъминлаган қишлоқ хўжалиги асосий ўсиш омили бўлган бўлса, 2017-2024 йилларда ишлаб чиқариш саноати асосий роль ўйнади. 2017-2023 йилларда унинг ҳиссаси ЯИМ умумий ўсишининг 5,5 фоизда 1,2 фоиз пунктни, 2024 йилда эса ЯИМ ўсишининг 6,6 фоизда 1,5 фоиз пунктни ташкил этди (4-расмга қаранг).



3-расм. Иқтисодиёт тармоқлари бўйича ЯИМ таркиби (жамига нисбатан фоизда)



4-расм. Иқтисодиёт тармоқларининг* ЯИМ ўсишига қўшган ҳиссаси, фоизда

* Ўзбекистон Республикаси иқтисодий фаолият турлари таснифлагичига (IFUT-2) мувофиқ
Манба: Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланди

Қурилиш ва савдо ҳам иқтисодий ўсишнинг асосий драйверлари бўлиб қолмоқда. Туризм соҳасини ривожлантириш ва иқтисодиётни рақамлаштириш хизмат кўрсатиш соҳаси, хусусан, яшаш ва овқатланиш, ахборот-коммуникация технологиялари улушини оширишга хизмат қилмоқда. 2024 йилда уларнинг ялпи ички маҳсулот ўсишидаги умумий ҳиссаси 1,2 фоиздан ошди.

3. ТАРКИБИЙ ЎЗГАРИШЛАРНИ МИҚДОРИЙ БАҲОЛАШ

Юқорида таъкидланганидек, Янги Ўзбекистон иқтисодиётида сифат жиҳатидан муҳим ўзгаришлар кузатишмоқда. Агар 2016 йилгача қишлоқ хўжалиги етакчи тармоқ бўлиб келган бўлса, сўнгги йилларда асосий эътибор қайта ишлаш саноати ва хизмат кўрсатиш соҳасига қаратилаяпти.

Иқтисодиёт тармоқлари улушининг таҳлили таркибий ўзгаришлар жараёнлари ҳақида маълум тасаввур беради. Аммо, мазкур жараёнга миқдорий баҳо бериш мумкинми? Мазкур мақолада шундай баҳолаш ўлчовларини бирини келтираман. Бунда таркибий ўзгаришларни технологик ривожланиш даражаси ва илмий-тадқиқот ишларидаги фаоллик орқали ўлчанади. Бунинг учун Жаҳон банкининг World Development Indicators маълумотлар базасидаги **High-technology exports** индикаторининг методик ва концептуал асослариладан фойдаланиш мумкин.

Юқори технологияли маҳсулотлар тушунчаси Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотининг (ИХТТ) таснифига асосланган бўлиб, у илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишланмалари (ИТТКИ)нинг интенсивлиги юқори бўлган ишлаб чиқариш тармоқларини қамраб олади. Бу тасниф дастлаб Томас Ҳатзичроноглоу томонидан ишлаб чиқилган бўлиб, у 2-илова, 4-жадвалда баён этилган.⁴

Кейинчалик ушбу тасниф ИХТТ томонидан янгиланган тахрирда қайта ишлаб чиқилди.⁵ Ушбу мақолада айнан шу тахрир асосида Ўзбекистон иқтисодиётининг технологик таркиби баҳоланди.

Мазкур таснифга кўра, тармоқлар (*Ўзбекистон Республикаси иқтисодий фаолият турлари таснифлагичига [IFUT-2] мувофиқ*) ИТТКИ интенсивлиги даражасига қараб беш тоифага ажратилади:

1. Паст интенсивликка эга тармоқлар (*Low R&D intensity industries*);
2. Ўртача-паст интенсивликка эга тармоқлар (*Medium-low*);
3. Ўртача интенсивликка эга тармоқлар (*Medium*);
4. Ўртача-юқори интенсивликка эга тармоқлар (*Medium-high*);
5. Юқори интенсивликка эга тармоқлар (*High*).

Тасниф ишлаб чиқариш саноати (*Manufacturing*) ва ноишлаб чиқариш соҳалари (*Non-manufacturing*) учун алоҳида ишлаб чиқилган. Бу иккаласини инобатга олса, унда умумий иқтисодникини чиқарса бўлади.

Иқтисодиётда қайси даражадаги технологик интенсивлиги устунлик қилса, иқтисодиёт ана шу даражага мансуб деб баҳоланиши мумкин. Бироқ, агар иқтисодиётда турли даражадаги ИТТКИ интенсивлиги тармоқлари мавжуд бўлса, ИТТКИ интенсивлигининг ўртача даражасини ифодаловчи интеграл кўрсаткич қуйидаги формула орқали ҳисоблаш мумкин:

$$ТИ = \sum D_i * p_i$$

бу ерда:

ТИ – ИТТКИнинг интенсивлигини интеграл даражаси;

D_i – товар ишлаб чиқаришнинг умумий ҳажмида i -тармоқнинг қўшилган қиймати (ёки ялпи маҳсулоти) улуши;

p_i – ИТТКИнинг интенсивлик даражаси (юқорида кўрсатилга 5 та даража).

4-расмда технологик ривожланиш ва ИТТКИ интенсивлиги даражаси нуқтаи назаридан таркибий ўзгаришларнинг натижалари акс эттирилган. Қиёсий таҳлил сифатида Қозғистон маълумотлари ҳам кўрсатилган.

⁴ Thomas Hatzichronoglou. Revision of the HighTechnology Sector and Product Classification. OECD Science, Technology and Industry Working Papers 1997/02

⁵ Fernando GalindoRueda, Fabien Verger. OECD Taxonomy of Economic Activities Based on R&D Intensity. OECD Science, Technology and Industry Working Papers 2016/04



4-расм. Технологик ривожланиш ва ИТТКИ интенсивлиги даражаси нуқтаи назаридан таркибий ўзгаришларни баҳолаш

Манба: Миллий статистика қўмитаси ва халқаро ташиқлотлар маълумотлар базаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланди

Умумий таҳлил шуни кўрсатадики, Ўзбекистон иқтисодиёти 1 ва 2 тоифалар — яъни паст ва ўртача-паст технологик даражалар оралиғида жойлашган. Бироқ, 2016 йилдан кейин технологик ривожланишда ижобий тенденция кузатилди: интеграл кўрсаткич 2016 йилдаги **1,34** дан 2021 йилда **1,49** гача ўсди, яъни **11** фоизлик ўсишга эришилди.

Ишлаб чиқариш саноати бўйича эса Ўзбекистон 2 ва 3 тоифалар ўртасидаги даражани намойён қилмоқда. Шунингдек, 2017 йилдан бошлаб Ўзбекистон ушбу кўрсаткич бўйича Қозоғистондан бироз илгариларини кайд этилган.

4. ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Мақолада Янги Ўзбекистон иқтисодиётида сўнгги йилларда кузатилаётган таркибий трансформация жараёнлари комплекс таҳлил қилинди. Таҳлил натижалари шуни кўрсатадики, 2017 йилдан кейин амалга оширилган иқтисодий ислохотлар натижасида иқтисодиёт таркибида сифат жиҳатидан муҳим ўзгаришлар юз бериб, қайта ишлаш саноати ва хизматлар соҳасининг роли сезиларли даражада ошди. Бу эса иқтисодий ўсишнинг янги драйверларини шакллантиришга ва ўсиш манбаларини диверсификация қилишга хизмат қилмоқда.

Шу билан бирга, миқдорий баҳолаш натижалари Ўзбекистон иқтисодиёти ҳануз паст ва ўртача-паст технологик интенсивлик даражасида эканлигини кўрсатади. Гарчи 2016 йилдан кейин технологик ривожланиш ва илмий-тадқиқот фаоллигида ижобий динамика кузатилган бўлса, юқори қўшимча қиймат яратадиган ва юқори технологияли тармоқларнинг иқтисодиётдаги улуши ҳали етарли даражага етмаган.

Ушбу ҳолатдан келиб чиқиб, иқтисодий сиёсатда таркибий трансформацияни янада жадаллаштириш мақсадида қуйидаги таклифларни илгари суриш мумкин. Биринчидан, саноат сиёсати доирасида ўртача-юқори ва юқори технологик интенсивликка эга тармоқларни ривожлантиришга қаратилган аниқ ва мақсадли дастурларни кучайтириш зарур. Иккинчидан, илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишларига инвестицияларни ошириш, хусусий секторнинг инновацион фаоллигини рағбатлантириш муҳим аҳамият касб этади. Учинчидан, инсон капитали сифатини ошириш, хусусан, муҳандислик, технология ва рақамли кўникмаларни ривожлантириш таркибий ўзгаришларнинг барқарорлигини таъминловчи асосий омиллардан бири бўлиши лозим.

Янги Ўзбекистон иқтисодиётида бошланган таркибий трансформация жараёнлари ижобий натижалар бермоқда. Узоқ муддатли барқарор ва инклюзив иқтисодий ўсишга эришиш учун ушбу жараёнларни технологик модернизация, инновациялар ва институционал ислохотлар билан уйғун ҳолда давом эттириш ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1) World Bank. (2024). *World Development Indicators*. Washington, DC: The World Bank. Available at: <https://databank.worldbank.org>

- 2) Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. (2024). *Ялпи ички маҳсулот ва иқтисодиёт тармоқлари статистикаси*. Тошкент.
- 3) OECD. (2011). *ISIC Rev.3 Technology Intensity Definition: Classification of manufacturing industries by technological intensity*. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development.
- 4) Hatzichronoglou, T. (1997). *Revision of the High-Technology Sector and Product Classification*. OECD Science, Technology and Industry Working Papers, No. 1997/02.
- 5) Ўзбекистон Республикаси Президенти. (2023). “Ўзбекистон – 2030” *стратегияси*. Тошкент.
- 6) International Monetary Fund (IMF). (2024). *World Economic Outlook Database*. Washington, DC.
- 7) United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). (2023). *Industrial Development Report*.
- 8) World Bank. (2023). *High-technology exports (% of manufactured exports) indicator methodology*.
- 9) OECD. (2018). *Research and Development Statistics (R&D intensity indicators)*.